ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

***2024***

**3/1-сан**

***Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды***

***Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.***

Нөкис

**3/1-сан *2024***

*март*

***Шөлкемлестириўшилер:***

***Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги, ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы***

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Вохид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ

**Орлова Т.А.** Иммерсивные технологии - как средство развивающего аспекта в обучении астрономии студентов педагогических вузов ..... 329
**Mamatoxunov Yo.A.** Integration of modern technologies into the educational process: analysing the impact on learning outcomes in physics ..... 336

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

**Ixlasov I.** Baslawısh klasslarda lingvistikalıq kompetensiyaǵa tiykarlanǵan qatnaslardı qáliplestiriwde kompetensiyanıń mazmun hám mánisi ..... 342
**Xurvalieva T.L.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional zo'riqishning kelib chiqish sabablari va uning yechimlari ..... 346
**Narimbayeva L.K.** Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotinii boshqarish ..... 350
**Shanasirova Z.Y.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv jarayonini takomillashtirishda pedagogik mahorat ko'nikmalarini rivojlantirish ..... 355
**Nosirova R. X.** Steam ta`lim texnologiyalari, maktabgacha ta'limni rivojlantirishning innovatsion yo'nalishi sifatida ..... 359
**Abdullayev A.A.** Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash xususiyatlari ..... 363
**O'razaliyeva S. T.** Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik va kasbiy talablar ..... 366
**Davletmuratova E., Orazbaeva G.** O'quvchi yoshlarni vatanparvarlik tuygusini tarbiyalashda xalq pedagogikasining ahamiyati ..... 370
**Azamatova D. Sh.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatining turlari ..... 374
**Maripova N.X.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatiga o'yinlarning ta'siri ..... 378
**Xidoyatova N.A.** Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruv jarayonini takomillashtirish ..... 381
**Achilova M. S.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning pedagogik asoslari ..... 386
**Mutalova D. A.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish ..... 391
**Kasimova N. D., Tojiddinova Z.** O'smir - o'quvchilarni kompyuter o'yinlari vositasi yordamida ta'lim sifatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari ..... 395
**Tursunboyeva M. D.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida ma'naviy sifatlarni tarbiyalash ..... 402
**Abduraximov D.D.** Milliy harakatli o'ynlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash ..... 406
**G'anixo'jayev A.Sh.** Aqliy va jismoniy salomatlikning bog'liqligi ..... 410
**Muratova M.O'.** Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakillantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati ..... 413
**Babyeva D.R.,Ochilova X.Sh.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvning zaruriyati ..... 418
**Ergasheva B.Z.** Modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim tashkilotlarining bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik muammolari ..... 423
**Eshmamatova S.T.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda psixologik moslashuvchanlik mexanizmlarini takomillashtirish ..... 426
**Buriyeva A.N.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'limiy o'yinlarning didaktik ta'minotini yaratishga oid turli yondoshuvlar ..... 429
**Ilyosboyev S.B.** Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etish yo`llari ..... 434
**Aybotayeva M.X.** Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlarni tashkil etish yo`llari ..... 438
**Eshboyeva D.D.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish ..... 442
**Adilbaeva G.Y.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiya ..... 446
**Adilbaeva G.Y.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllari ..... 452

# TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BOSHQARUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

**_Xidoyatova N.A._**
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, boshqaruv tizimi, strategiya, ta'lim va fan
**Ключевые слова:** общее среднее образование, система управления, стратегия, образование и наука
**Key words:** general secondary education, management system, strategy, education and science.

Ta'limni boshqarish nazariyasida uning o'ziga xosligi ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflangan boshqaruvga turli yondashuvlarda namoyon bo'ladi. Bu yondashuvlar boshqaruv jarayonining mohiyatini belgilab beradi va uning evolyutsiyasini tarixiy-pedagogik tadqiq qilish jarayonida tahlil predmeti bo'lib xizmat qilishi, ushbu boshqaruvning yetakchi paradigmasini kvalifikatsiya qilish funksiyasini bajarishi mumkin. Shubhasiz, ularning har biri boshqaruvni shakllantirish jarayonida u yoki bu tarixiy bosqichda ma'lum foyda keltirgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini boshqarish, bu borada tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoniga tatbiq etilmoqda. Respublikamizda "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Dunyoda maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruv jarayonida uzviylik va tizimlilikni amalga oshirish, innovatsion ta'lim muhitida resurslarni boshqarishning zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga

e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekiston ta'lim siyosatining mazmun-mohiyati to'g'risida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishi tantanali marosimga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida "Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" - deb ta'kidlaganlar.

Ta'limni boshqarishni optimallashtirish jarayonida subyektlarning o'zaro hamkorligiga ustuvorlik berish, ta'lim oluvchilar uchun zarur sharoitlarni yaratish, ularning kompleks rivojlanishini tizimli nazoratga olish orqali sifat va samaradorlikni baholashning samarali mezonlarini tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotida, bu jarayonda xorijiy va milliy ilg'or tendensiyalardan o'rinli foydalanishning huquqiy-me'yoriy asoslari takomillashtirilgan. Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'gani hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruvning zamonaviy yondashuvlarini tadqiq etish zamon talabiga aylanmoqda. Ayniqsa, ta'limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshqaruv jarayonining mazmunini optimallashtirish, tamoyillarini aniqlash va pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari muhim o'rin tutmoqda.

I.P.Podlasiy pedagogik tizimda ro'y beruvchi innovatsion o'zgarishlarning muhim yo'nalishlarini quyidagilar iborat deb belgilaydi:

- pedagogik tizimning tubdan o'zgarishi; ta'lim jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyalarning o'zgarishi; o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- o'quvchi faoliyatining mazmunan yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- ta'lim shakllar, metodlari va vositalarining o'zgarishi;
- ta'lim boshqaruvining o'zgarishi; ta'lim maqsadi va natijasining o'zgarishi.

Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarning ayrimlari (masalan, pedagogik tizimning tubdan o'zgarishi, ta'lim maqsadi va natijasining o'zgarishi) bevosita rahbar organlar (jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Respublika Xalq ta'limi vazirligi) yetakchiligida amalga oshirilsa, pedagogik nazariyalarning o'zgarishi yuzaga kelgan mavjud ijtimoiy talab va uni ko'ndirishga bo'lgan ehtiyoj asosida kechadi. Ta'lim jarayoni yoki o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi, o'quvchi faoliyati hamda ta'lim mazmunining

yangilanishi, ta'lim boshqaruvi, shuningdek, pedagogik texnologiya, ta'lim shakllar, metodlari va vositalarining o'zgarishi kabilar esa umumiy ta'lim maktablarining innovatsion tashabbuslari, yetarli darajada moddiy-texnik bazaga egaligi, u muassasaning malakali, ijodkor pedagoglarga egaligi, o'quvchilarning ehtiyojlari, shuningdek, ota-onalari talablariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruv jarayonini takomillashtirishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

1) demokratik va insonparvar g'oyalarning ustuvorligi;
2) ilmiylik va aniq maqsadga yo'naltirilganlik;
3) tizimlilik;
4) marketing goyalariga asoslanish;
5) majmuaviylik;
6) ta'limiy vazifalarni me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq bajarilishi;
7) shaxsiy mas'ullik;
8) pedagogik qo'llab-quvvatlash;
9) umumiy ta'lim maktablari bilan ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro integratsiya;
8) aniq vaziyatni hisobga olish.

maktabgacha ta'lim tashkilotida ichki tarkibida o'quvchilar hamda xodimlar (pedagogik, yordamchi va ma'muriy xodimlar) soni, ularning o'ziga xos xususiyatlari (masalan, pedagog xodimlarning o'rtacha yoshi, ma'lumotlari darajasi, kasbiy tayyorgarligi, ish tartibi), muassasasining moddiy-texnik asosi, pedagogik jamoa an'analari, faoliyat maqsadlari, ta'lim (psixologik, estetik, sanitariya-gigienik) shart-sharoitlari aks etadi.

maktabgacha ta'lim tashkilotida tashqi tarkibi esa ijtimoiy muhit obyekt va subyektlari - hudud aholisi, savdo shahobchalari, madaniy-ma'rifiy va sport inshootlari, muassasalar, ijtimoiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, ota-onalar bilan aloqa, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-g'oyaviy rivojlanish darajasi kabilardan iborat.

Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishda boshqaruv vazifalari quyidagi to'rt darajada aks etadi:

1. maktabgacha ta'lim tashkilotida rahbari tomonidan hal qilinuvchi vazifalar - boshqarishning individul hamda jamoaviy shakllarda, ya'ni ta'sischilar kengashi, pedagogik kengash, pedagogik jamoa va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda hal etilishini ifodalaydi.

2. maktabgacha ta’lim tashkilotida rahbarining o‘rinbosarlari tomonidan hal qilinuvchi vazifalar - bunda ham individual va jamoaviy shakllarda (pedagogik konsilium, uslubiy kengash va boshqalar bilan hamkorlikda) o‘z yechimini topadi.

3. Fan o‘qituvchilari, sinf rahbarlari, ota-onalar qo‘mitasi va boshqalarning o‘zaro hamkorligi asosida hal etiluvchi vazifalar.

4. O‘quvchilar tomonidan hal etiluvchi vazifalar ularning o‘z-o‘zini boshqarish organlari, shu’balar, klublar faoliyatini tashkil etish orqali bajariladi.

Boshqaruvning psixologik-pedagogik ta’minoti umumiy ta’lim maktablari innovatsion faoliyatining muhim tarkibiy kismi sanaladi. Bizning fikrimizcha, ta’limni modernizatsiyalash sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning psixologik-pedagogik ta’minotini yaratishning asosiy shartlaridan biri sifatida ta’limni insonparvarlashtirish va axborotlashtirishni e’tirof etish lozim. Buning mohiyati, eng avvalo, maktab jamoasi o‘rtasida insonparvarlik munosabati qaror toptirish bo‘lsa, ikkinchidan esa, o‘quvchilarni o‘zini namoyon qilishda va shaxsning o‘sishi uchun psixologik - pedagogik sharoit yaratish hamda axborot muhitini shakllantirishdan iboratdir.

maktabgacha ta’lim tashkilotida mavjud haqiqiy holat va pedagogik faoliyatda qo‘llanilayotgan ta’limiy va tarbiyaviy metodlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha bilimlari darajasi ta’lim muassasasida muayyan mezonlar bilan baholanib, ma’lum shartli belgilar

– raqamlardan iborat ball yoki baholarda ifoadalanadi. Biroq, baholash

tizimi qisqacha yozma tahlil bilan to‘ldirilsa, sinf rahbari va ota-onalar o‘quvchilar (farzandlari)ning aqliy va ma’naviy-axloqiy kamoloti darajasini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lardilar. O‘quvchilar esa shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini mustaqil baholay olardilar. Bu esa ularda o‘ziga nisbatan talabchanlikni oshirishga yordam berardi.

Pedagogik jamoa o‘rtasidagi o‘zaro yoki pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasidagi ziddiyatlar (vertikal va gorizantal yo‘nalish bo‘yicha) qiyinchilik (tusik)lar nafaqat ta’lim maqsadlarini tug‘ri belgilanishiga, shu bilan birga jamoada ijodiy muhitning mavjud bo‘lmasligiga olib keladi.

Shu bois ta’lim muassasasining rahbari oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri - bu mavjud muammolarni aniqlab olish hisoblanadi. Muammolarni tug‘ri aniqlay olmaslik ta’lim rahbarlari o‘rtasida keng tarqalgan xatolardan biridir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining innovatsion faoliyatini tashxislash ta’lim muassasasi faoliyatining samaradorligini oshirish bilan birga o‘quvchilar va o‘qituvchilarni dam faol ijodiy ishlashga yo‘naltiradi, bu yo‘lda samarali shakl, metod va vositalarni aniqlashga imkon beradi. Maktabgacha ta’lim

tashkilotida innovatsion faoliyatini tashxislashda turkum metodlarning qo‘llanishi bu borada belgilangan vazifalarning izchil hal etilishi va maqsadga erishilishiga imkon beradi.

**Adabiyotlar:**


1. Dyukov, maktabni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishning nazariy va uslubiy asoslari. [Internet resurs] // http://pedsovet. org/komponent/.
2. 8. Ta’lim muassasasini rivojlantirish dasturi [Matn] / to’g’ridan-to’g’ri papka: «Ta’lim menejeri». – M.:, 2010. – 400 b. 9. Moiseev, maktab jamoasining o’zini o’zi belgilashi .
3. // Maktab boshqaruvi. 2010 yil. № 10. - S. 26 - 31. 10. Sxemalarda korxonani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish. [Internet resurs] // http://rasmlar. 11.
4. “Maktabni boshqarishda innovatsion menejment”. Qo’llanma , . - M.: APKiPPRO, 2008 yil. – 72 b. 12.



**РЕЗЮМЕ**

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruv jarayonini takomillashtirishnining ahamiyatli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim boshqaruvida ahamiyatga ega jihatlar ta’kidlanib, uning boshqaruviga mas’ullar va ularning shaxsiy xususiyatlaridan tortib boshqaruv strategiyalarini rivojlantirish to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В статье освещаются важные аспекты совершенствования процесса управления общеобразовательными школами. Он также подчеркивает важные аспекты управления школой и затрагивает все, от ответственных за управление школой и их личностных характеристик до разработки стратегий управления.

**SUMMARY**

The article covers significant aspects of improving the management process of general secondary schools. It also highlighted aspects of importance in school management and touched on the development of management strategies, ranging from those responsible for school management and their individual characteristics.